



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 146 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'ri.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadrriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
Go'zal Qurbonova	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
Muratova Munavvar O'rol qizi	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
Usmonova Zamira Jaxongirovna	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
Panayeva Maloxat Muminovna	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
Багдасарова Диана Левоновна	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
Зарымова Турсынай Бердибай кызы	



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA HAYOT XAVFSIZLIGI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB PEDAGOGIK MASALALARI



Muratova Munavvar O'rol qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasini o'qituvchisi

ORCID : 0009-0005-1796-7693

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar hayot xavfsizligini ta'minlashning dolzarb muammolari tahlil qilingan. Pedagoglar hamda boshqa xodimlarning bolalar hayot xavfsizligini ta'minlashdagi mas'uliyati va funksional vazifalari yoritilgan.

Shuningdek, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik model hamda uni ta'lim amaliyotiga joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari bayon etilgan. Tadqiqot natijalari hayot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishda tizimli pedagogik yondashuvning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: hayot xavfsizligi, maktabgacha ta'lim, pedagogik model, xavfsiz xulq-atvor, bolalar xavfsizligi, pedagogik shart-sharoitlar, xavfsizlik madaniyati, hayotiy ko'nikmalar.

Abstract: This article examines the current challenges of ensuring children's life safety in preschool educational institutions. It highlights the responsibilities and professional duties of teachers and other staff in maintaining a safe educational environment. The study also presents a pedagogical model for developing life safety skills in older preschool children and substantiates the need for its implementation in educational practice.

The findings demonstrate that a systematic pedagogical approach plays a significant role in fostering a culture of safety and developing essential life safety competencies among preschool children.

Key words: life safety, preschool education, pedagogical model, safe behavior, child safety, pedagogical conditions, safety culture, life skills.

Аннотация: В статье анализируются актуальные проблемы обеспечения безопасности жизнедеятельности детей в дошкольных образовательных организациях. Освещаются ответственность и функциональные обязанности педагогов и других сотрудников по обеспечению безопасности жизнедеятельности воспитанников.

Кроме того, представлена педагогическая модель формирования навыков безопасной жизнедеятельности у детей старшего дошкольного возраста и обоснована необходимость её внедрения в образовательную практику. Результаты исследования подтверждают, что системный педагогический подход является важным условием формирования культуры безопасности у детей.

Ключевые слова: безопасность жизнедеятельности, дошкольное образование, педагогическая модель, безопасное поведение, безопасность детей, педагогические условия, культура безопасности, жизненные навыки.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalar hamda bolalar hayotiga xavf tug'diruvchi omillar hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Bolalar atrof-muhitni faol o'rganishga intilishlari sababli ko'pincha o'z hayoti va salomatligiga tahdid soluvchi vaziyatlarga duch keladilar. Shu bois ularda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini ilk yoshdan boshlab shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kattalar tomonidan beriladigan "tegma", "mumkin emas", "yaqinlashma" kabi cheklavlar har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, taqiqlangan narsaga nisbatan qiziqish kuchayishi mumkin. Shuning uchun bolalarni faqat taqiqlash emas, balki xavfning mohiyatini tushuntirish va xavfsiz harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish masalasi pedagogika, rivojlanish psixologiyasi va hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishlarida keng tadqiq etilayotgan ilmiy muammolardan biridir. Zamonaviy ilmiy qarashlarda bolalarni xavfsiz xulq-atvoriga o'rgatish nafaqat ularning jismoniy salomatligini saqlash, balki shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishining muhim sharti sifatida baholanadi. Shu bois mazkur masala bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish tadqiqotning nazariy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida bola xavfsiz xulq-atvorni mustaqil ravishda emas, balki pedagog va ota-onalar rahbarligida bosqichma-bosqich egallashi ta'kidlangan bo'lsa, A.N. Leontevning faoliyat nazariyasida bolalarda barqaror ko'nikmalar faqat amaliy faoliyat orqali shakllanishi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv hayot xavfsizligi ko'nikmalarini mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar va amaliy mashqlar orqali rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, D.B. Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida syujetli-rolli o'yin yetakchi faoliyat ekanligini hamda bolalar kattalar faoliyatini o'yin orqali o'zlashtirishini ilmiy asoslagan.

Pedagogik modellashtirish nazariyasini rivojlantirgan V.M. Polonskiy modelni pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi ilmiy vosita sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, model ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi. Mazkur yondashuv maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini tizimli ravishda shakllantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi ham muhim o'rin egallaydi. Piagetning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar real hayotiy vaziyatlar bilan bevosita tanishish va amaliy tajriba orttirish orqali bilimlarni samarali o'zlashtiradilar. Shuning uchun hayot xavfsizligi mazmunini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish muhim hisoblanadi.

Yurtimiz olimlaridan Sh.A. Do'stmuhamedova, F.R. Qodirova, M.N. A'zamova va boshqa tadqiqotchilar maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda xavfsiz ta'lim muhitini yaratish masalalarini keng yoritganlar. Ularning ilmiy ishlarida bolaning hayoti va salomatligini muhofaza qilish ta'lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etiladi hamda pedagog va ota-onalar hamkorligining ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Xususan, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi hamda maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy hujjatlarda bolalarda shaxsiy, maishiy, ekologik, yo'l harakati va jamoat joylaridagi xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda bolalarda xavfsizlik ko'nikmalarini faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan va o'yin texnologiyalari orqali rivojlantirish masalalari chuqur o'rganilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirishga ustuvor ahamiyat berilgan. Biroq maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini kompleks yondashuv asosida shakllantirish, pedagogik shart-sharoitlar va baholash mezonlarini yagona tizim sifatida tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar yetarli emas. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik masalalarini tizimli ravishda yoritishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik masalalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlandi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tadqiqot usullarining o'zaro uyg'unligidan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy bosqichida pedagogika, psixologiya hamda hayot faoliyati xavfsizligi sohasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari tahlil qilindi. Adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning mavjud holati, ilmiy yondashuvlari hamda pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi.

Empirik tadqiqotlarda pedagogik kuzatish usuli yordamida tarbiyalanuvchilarning kundalik faoliyatida xavfsiz xulq-atvorni namoyon etish darajasi, pedagoglarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish xususiyatlari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratilgan xavfsiz muhit holati o'rganildi. Kuzatishlar tabiiy pedagogik sharoitda tashkil etilib, bolalarning yo'l harakati, jamoat joylari, maishiy va yong'in xavfsizligiga oid vaziyatlardagi xatti-harakatlari muntazam qayd etildi.



Suhbat va anketa metodlari orqali pedagoglar hamda ota-onalarning hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga oid bilimlari, munosabatlari va amaliy faoliyati o'rganildi. Olingan ma'lumotlar mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ldi.


Diagnostik tadqiqotlar jarayonida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari asosida baholash ishlari amalga oshirildi. Bunda bolalarning xavfni anglash, xavfli vaziyatni baholash, to'g'ri qaror qabul qilish hamda xavfsiz xatti-harakatni amalda qo'llash darajalari kompleks baholandi.

Tadqiqotning asosiy bosqichida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba davomida hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim mazmuni, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, amaliy mashqlar va interfaol metodlardan foydalanildi. Tajriba yakunida tajriba hamda nazorat guruhlarini natijalari o'zaro taqqoslanib, ishlab chiqilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi baholandi (1-jadval).

1-jadval: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini aniqlashning dastlabki tahlili

DMTTlar	Barcha viloyatdagi DMTTlar							
	Bolalarda xavfsizlik xulq-atvorining shakllanganligi		Xavfli vaziyatlarni aniqlay va baholay olishi		Real xavfli vaziyatlarda to'g'ri harakat qila olish		Ta'limiy faoliyatlarda amaliy ko'nikmalarning egallanganligi	
Mezonlar	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
O'rtacha qiymat	3,33	3,33	3,32	3,32	3,34	3,34	3,33	3,33
Samaradorlik	1,00		1,00		1,00		1,00	
Dispersiya	0,04	0,04	0,04	0,04	0,04	0,04	0,04	0,04
Variatsiya ko'rsatkichi	1,2%	1,2%	1,2%	1,2%	1,2%	1,2%	1,2%	1,2%
Styudent kriteriysi	-0,17		0,07		0,09		0,08	
Kritik qiymat	1,97		1,97		1,97		1,97	
Ishonch oralig'i	3,32	3,33	3,32	3,32	3,33	3,33	3,33	3,33
	3,33	3,34	3,33	3,33	3,34	3,34	3,34	3,34
Xulosa	H0		H0		H0		H0	
Ishonch chetlanishi	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01
o'qitish sifatini baholash ko'rsatkichi	1,00		1,00		1,00		1,00	
bilish darajasini baholash ko'rsatkichi	0,00		0,00		0,00		0,00	

Samaradorlik



1-rasm: Yakuniy bosqichidagi mezonlar bo'yicha olingan natijalarning samaradorlik qiymatlari

Olingan natijalarning o'rtacha qiymati, foiz ko'rsatkichlari, dispersiya va variatsiya koeffitsiyentlari hisoblandi hamda guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatligi Styudentning t-mezone yordamida aniqlandi. Statistik tahlil natijalari tajriba-sinov ishlari samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuvlar va tadqiqot usullarining o'zaro uyg'unligi maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilish, tajriba natijalarining ishonchliligini ta'minlash hamda ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar hayot xavfsizligini ta'minlash masalasi ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. Kuzatishlar va pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbatlar tahliliga ko'ra, bolalarda xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar barcha tashkilotlarda bir xil darajada yo'lga qo'yilmagan. Ayrim tashkilotlarda xavfsizlik masalalari asosan yo'riqnomalar va og'zaki tushuntirishlar bilan cheklanayotgan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlar, rolli o'yinlar hamda hayotiy vaziyatlarni modellashtirishga yetarli e'tibor berilmayotgani kuzatildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz muhitni yaratish faqat tarbiyachining vazifasi emas, balki rahbar, psixolog, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, tibbiyot xodimi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning o'zaro hamkorligini talab etadigan uzluksiz pedagogik jarayondir. Xodimlarning har biri bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni to'liq bajarishi xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Pedagogik kuzatishlar davomida ayrim xodimlarda hayot xavfsizligi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarining yetarli emasligi aniqlandi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda bolalar xavfsizligini ta'minlashga oid tayyorgarligi barcha hollarda ham talab darajasida emasligi kuzatildi. Bu esa bolalar hayoti va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavf omillaridan biri sifatida baholandi.

Ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar natijalari oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaga qo'yiladigan xavfsizlik talablari o'rtasida uzviylik har doim ham ta'minlanmasligini ko'rsatdi. Ayrim ota-onalar bolalarda mustaqil xavfsiz xulq-atvorni rivojlantirish o'rniga ularni faqat taqiqlar orqali boshqarishga harakat qiladilar. Natijada bolalarda xavfni anglash va xavfli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasiga oid davlat standartlari, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha aniq talablar belgilangan. Biroq amaliyot tahlili ushbu talablarning ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'liq va tizimli ravishda amalga oshirilmayotganini ko'rsatdi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari hayot xavfsizligi mazmunini didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, kuzatish, suhbat va amaliy mashqlar bilan uyg'unlashtirish bolalarda xavfni anglash, vaziyatni to'g'ri baholash hamda xavfsiz qaror qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, real hayotga yaqin vaziyatlar asosida tashkil etilgan faoliyatlar bolalarning bilimlarini amaliy faoliyatga ko'chirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shuningdek, pedagoglarning hayot xavfsizligi bo'yicha kasbiy kompetentligini oshirish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va xavfsizlikka yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omillar ekanligi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish uzluksiz va maqsadli tashkil etiladigan pedagogik jarayon ekanligi tasdiqlandi. Bolalarda xavfsiz xulq-atvorni rivojlantirish nafaqat ta'lim mazmuniga, balki pedagoglarning kasbiy kompetentligiga, ota-onalar bilan hamkorlikka va maktabgacha ta'lim tashkilotida yaratilgan xavfsiz muhitga ham bevosita bog'liq.

Tadqiqot davomida hayot xavfsizligi bo'yicha mavjud normativ-huquqiy asoslar bolalarda zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun yetarli imkoniyat yaratishi, biroq ularni amaliyotga tatbiq etishda ayrim kamchiliklar saqlanib qolayotgani aniqlandi. Shu sababli, hayot xavfsizligi masalalarini ta'lim-tarbiya jarayonining barcha yo'nalishlariga tizimli integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hayot xavfsizligi bo'yicha mashg'ulotlarni zamonaviy interfaol metodlar va didaktik o'yinlar asosida tashkil etish;
- pedagog hamda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam bo'yicha kasbiy malakasini muntazam oshirib borish;



- ota-onalar uchun hayot xavfsizligi masalalariga bag'ishlangan seminar-treninglar va amaliy mashg'ulotlarni tizimli tashkil etish;
- bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda xavfli vaziyatlarni modellashtiruvchi ta'lim vositalaridan keng foydalanish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xavfsiz ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ichki monitoring tizimini takomillashtirish;
- bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini muntazam diagnostika qilish va olingan natijalar asosida individual pedagogik yondashuvni qo'llash.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini samarali shakllantirish, baxtsiz hodisalarning oldini olish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xavfsiz va sog'lom ta'lim muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. - Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. - Toshkent, 2022.
4. Konvensiya o pravax rebenka (Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya). - BMT, 1989.
5. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. - Moskva: Pedagogika, 1991. - 480 b.
6. Leontev A.N. Deyatel'nost. Soznaniye. Lichnost. - Moskva: Politizdat, 1977. - 304 b.
7. Elkonin D.B. Psixologiya igri. - Moskva: Pedagogika, 1978. - 304 b.
8. Piaget J. The Psychology of the Child. - New York: Basic Books, 1969. - 173 p.
9. Polonskiy V.M. Slovar po obrazovaniyu i pedagogike. - Moskva: Vysshaya shkola, 2004. - 512 b.
10. Hasanboyeva O.U., Tojiyeva Z., Usmonboyeva M. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: Ilm Ziyo, 2006.
11. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Tafakkur, 2019.
12. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2017.
13. Muratova M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Pedagogika: ilmiy-nazariy va metodik jurnal. - 2023. - № 2. - B. 193-195.
14. Muratova M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni jamoat joylaridagi hayot xavfsizligiga o'rgatish mazmuni // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent, 2024. - B. 126-130.
15. Muratova M. Negative consequences of bullying in relation to preschool children // International Journal of Pedagogics. - 2023. - Vol. 3. - Issue 10. - P. 43-47.
16. Qodirova N.M. Maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish // Science and Education. - 2024. - № 1. - B. 242-245.
17. Komolova I. Maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuv // Eurasian Journal of Academic Research. - 2022. - Vol. 2. - № 11.
18. Jabborova M. Maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro pedagogik yondashuvlar integratsiyasi // Research and Implementation. - 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.